



## FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-iyul

176-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

### **Farg‘ona viloyati hokimining 2025- yil 20-martdagi “Maishiy chiqindilarni ta’riflarini belgilash to‘g‘risida”gi 164-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-son Farmoni talablaridan kelib chiqib, “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 17-fevraldagi 01/01-56-son xati, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 23-apreldagi 03/09-01-18/1972-son xulosasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevral kungi VM-21/24-23-son (XDFU) majlis bayoni (23-son) 10-bandi va viloyat hokimining 2025-yil 20-martdagi 164-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda tuman hududida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona ta’riflarni belgilash va ta’riflarni tartibga solish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunni 6, 21 1-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevral kungi VM-21/24-23-son (XDFU) majlis bayoni hamda Farg‘ona viloyat hokimining 2025-yil 20-martdagi 164-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 17-fevral kunidagi 01/01-56-son xati inobatga olinsin.
3. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan maishiy va qurilish chiqindilarini hududiy

poligonlarga qabul qilish va saqlash bo'yicha majburiy to'lov ta'riflari 2025-yil 20-martdan quyidagicha belgilansin:

**a)** 1 metr kub chiqindiga 18 711 so'm (QQS bilan) miqdorida;

**b)** 1 tonna chiqindiga 45 416 so'm (QQS bilan) miqdorida cheklangan ta'riflar belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**4.** Tuman hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov, tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Ergashev), tuman "Vodil yog'dusi gazetasi" taxriryati (S.Dadaxo'jayev), Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (U.Toshbekov), Sog'liqni saqlash birlashmasi (X.Toshboyev), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (R.Xojiqurbonov) bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

**5.** Tuman hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov maishiy va qurilish chiqindilarini hududiy chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlarining yangilangan ta'riflarini 2025-yil 20-martdan boshlab qo'llanishi yuzasidan har bir sanitar tozalash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

**6.** Farg'ona viloyati hokimining 2019-yil 17-avgustdagi 277-sonli qarori asosida tuman hokimining qarori qabul qilinmaganligi inobatga olinsin.

**7.** Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M. Qodirxonov zimmasiga yuklansin.

**Farg'ona tuman hokimi**



**Inomov X.T**